



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK
OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI XIZMATINING
QASHQADARYO VILOYAT BOSHQARMASI**

BUYRUQ

31 " 10 2022 y

№ 64 t § 1

Qarshi shahri

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati
Qashqadaryo viloyat boshqarmasi xodimlarining odob-axloq qoidalari
to'grisida.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-sonli qaror talablaridan kelib chiqib davlat xizmatchilarining xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalarga rioya etilishlarini, ularning kiyinish me'yorlarini belgilash, shuningdek deontologik nuqtai nazardan sog'lom, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik muhitning barqarorligini ta'minlash, kasbga nisbatan va o'zaro hurmat munosabatlarini mustahkamlash maqsadida

BUYURAMAN

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- Odob-axloq komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb yuritiladi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;
- Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;
- Xodimlarning odob-axloq qoidalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Komissiya raisi (D.B.Toshniyozov):

xodimlar o'rtasida xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalarga rioya etilishlarini, ularning kiyinish me'yorlarini belgilash, shuningdek deontologik nuqtai nazardan sog'lom, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik muhitning barqarorligini ta'minlash, kasbga nisbatan va o'zaro hurmat munosabatlarini mustahkamlash yuzasidan muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borsin.

-xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga, xizmat faoliyatlariga oid va xizmatdan tashqari odob-axloq, jamoatchilik bilan munosabatlarga doir qoidalarga, kiyinish me'yorlariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan hollarda ularning sabablarini aniqlab, ijobiy yechimi bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritib borsin.

4. Boshqarma bo'lim mudirlari ichki mehnat tartib qoidalari va boshqa

idoraviy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori talablariga muvofiqlashtirilishi ta'minlansin.

5. Mazkur buyruk qabul qilinishi munosabati bilan viloyat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshqarmasining 2022 yil 06 iyundagi №31t §3-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazorat boshqarma boshlig'i birinchi o'rinbosari S.S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqarma boshlig'i

T.S.Pakirov

Kiritildi:

Tashkiliy-nazorat va axborot-
tahlil bo'limi boshlig'i

N.Alikulova

Kelishildi:

Boshliq o'rinbosari


D.B.Toshniyozov

KUQ raisi

R.Salomov

Yuristkonsul't

S.Saydaliyev



**Odob-axloq komissiyasi
TARKIBI**

1.	D.B.Toshniyozov	-	Boshliqning o'rinbosari, rais.
A'zolar:			
2.	Sh.Nomozov	-	Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i, rais o'rinbosari
3.	R.Salomov	-	Kasaba uyushmasi raisi
4.	Z.Murodova	-	Sanitariya-gigiyena laboratoriyasi mudiri
5.	B.Eshonqulov	-	Bakteriologiya laboratoriyasi mudiri
6.	T.Taymanov	-	Epidemiologiya bo'lim boshlig'i. vvb
7.	B.Boboyev	-	Immunoprofilaktika bo'limi boshlig'i.
8.	U.Norqulov	-	O'XYuK bo'limi boshlig'i.
9.	N.Alikulova	-	Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil bo'limi boshlig'i.
10.	S.Saydaliyev	-	Yuristkonsul't

Izoh: Zaruratga ko'ra qo'shimcha ravishda komissiya tarkibiga mutaxassislar jalb etilishi mumkin, xodim lavozimidan ozod etilganda yoki boshqa ishga o'tyanda, uning o'rniga tayinlangan xodim ishchi guruh a'zosi hisoblanadi.